


TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTLARI
ILMIY-NAZARIY JURNALI

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК
ТАШКЕНТСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО
ПЕДАГОГИЧЕСКОГО УНИВЕРСИТЕТА

SCIENTIFIC BULLETIN
OF THE TASHKENT
STATE PEDAGOGICAL UNIVERSITY

2020
9-son

*Jurnal Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan
2014-yil 30-iyulda №02-00175 raqam bilan ro'yxatga olingan.
tdpujournal@mail.ru*



NUTQIY MUKAMMALLIK VA NUTQIY JINOYAT

Qo'ldashev N. A. – Farg'ona davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Maqolada muloqot jarayonida vulgar so'zlar, jargonlar va argolardan foydalanish me'yorlari, tilning axloqiy-madaniy omillarini tadqiq etish bilan birga sotsiolingvistikaning tarkibiy qismi bo'lgan ekolingvistika fani haqida fikr-mulohazalar ilmiy asoslangan.

Kalit so'zlar: antropocentrizm, varvar so'zlar, jargon so'zlar, argo so'zlar, lisoniy, ekolingvistika.

РЕЧЕВОГО МАСТЕРСТВА И РЕЧИ ПРЕСТУПНОСТЬЮ

Кулдашев Н. А. – Ферганский государственный университет базовый докторант

Аннотация. В статье научно обоснованы мнения о науке эколлингвистики, являющейся составной частью социоллингвистики, наряду с нормами употребления вульгарных слов, жаргонов и Арго в процессе общения, изучением нравственных и культурных факторов языка.

Ключевые слова: антицентризм, варварские слова, жаргонные слова, арго слова, лингвистический, эколлингвистика.

THE SPEECH SKILLS AND SPEECH CRIME

Kuldashev N. A. – Fergana State University post doctoral student

Abstract. The author analyzes scientifically substantiates opinions about the science of ecolinguistics, which is an integral part of sociolinguistics, along with the norms of using vulgar words, jargon and argot in the process of communication, the study of moral and cultural factors of language.

Keywords: anticentrism, barbarian words, slang words, argo words, linguistic, ecolinguistics.

Dunyoda fan va texnika imkoniyatlarining oshishi tabiat va jamiyatda ekologik munosabatlarni vujudga keltirdi. Natijada tabiatni asrash, olamni qutqarish degan tushunchalar tilshunoslik sohasiga ham kirib, ekolingvistika yo'nalishini shakllanishiga turtki bo'ldi. Rus tilshunosi G. Y. Solganikning fikricha, tildagi antropocentrizm, muloqot jarayonida vulgar so'zlar, jargonlar va argolardan foydalanish me'yorlari, tilning axloqiy-madaniy omillarini tadqiq etish bilan sotsiolingvistikaning tarkibiy qismi bo'lgan ekolingvistika ham shug'ullanishi lozim.³ Til sofligini saqlashda hozirgi ba'zi yoshlar ko'p qo'llaydigan so'z va iboralar, ya'ni **varvar so'zlar** haqida gapirmasdan bo'lmaydi. "Varvarizmlar" yunoncha *barbarismos* so'zidan olingan bo'lib, "kelgindi" degan ma'noni bildiradi. Ona tiliga o'zlashmagan, uning me'yorlariga mos bo'lmagan, o'zga til hodisasi sifatida qo'llanadigan so'z va iboralar. Komediya personajlari nutqida uchraydigan varvarizmlarni qaysi tilga aloqadorligiga ko'ra to'rt gruppaga ajratish mumkin.¹ Varvarizmlar, asosan, so'zlashuv uslubiga xos, tilning adabiy me'yorini buzadi va uning asosiy lug'at tarkibiga

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Беш жилдлик. 1 жилд. – Тошкент, 2006.



kirmaydi. Varvar soʻzlardan baʼzan badiiy adabiyotda mahalliy muhitni berish, obrazlarni xoslashtirishda foydalaniladi. Masalan, varvarizm pulni (“koʻkidan” bormi – dollar bormi), lavozim va shaxsni (“mer”, “shef”, “boss”, “baron”) va hokazo tarzda ifodalashi anglatadi, shuningdek, mazax qilishda foydalaniladi. Oʻzbek tili davlat tili maqomini olgach, turli tillardan, ayniqsa, rus tilidan kirgan varvarizmlardan (“madam”, “bratan”, “zemlyak”, “paxan”, “dedulya” va bshq.) oʻzbek soʻzlashuv tili faol tozalana boshladi.

Har qanday voqelik yoki predmetga munosabat berilganda, avvalo, uning tozaligi, haqiqiyliigi va boshqa unsurlardan holi ekanligi muhim meʼyoriy jihati sanaladi. Tildagi “soflik” tushunchasi ham baholash meʼyorining choʻqqisidir. “Shunga koʻra nutqning sofligini nutqning adabiy til meʼvorlariga va jamiyatdagi maʼnaviy – axloq qoidalariga yot boʻlgan unsurlardan xoliligi bilan belgilanuvchi kommunikativ sifat tarzida taʼriflash mumkin. Aytish joziki, kishi nutqining sofligi uning maʼnaviy-maʼrifiy, lisoniy-madaniy saviyasini namoyon etadigan koʻrsatkichlardan biridir”¹. Insonning oʻz ona tiliga boʻlgan mehr-u muhabbati va hurmati, oʻz tilini qanchalik bilish-bilmasligi undagi madaniylik darajasiga oʻlchovdir. Madaniyatning tom mohiyatini tushungan, yaʼni madaniylik qonun-qoidalari tanasiga singib ketgan har biro dam oʻzi gapirayotgan tilning sofligi, uning kelajagi uchun hamma vaqt qaygʻuradi. Bunday odam ruscha gapirayotganda, oʻzbek tilining sofligini saqlaydi. Oʻtkir Hoshimovning “daftar hoshiyasidagi bitiklar” asarida “Soʻqqabosh bevagina” nomli kichkina hikoyacha mavjud. Hikoyada ayolning yolgʻizligi va farzandlari oʻzining tilidan gavdalantiriladi. Oʻzbek boʻlishiga qaramay, qilgan ishlari va ishlatayotgan soʻzlaridan maʼnaviyatining qandayligi koʻrinib qoladi.

“Mumkinmi? Good morning! Salom! Ruxsatingiz bilan oʻzimni predstavit etsam... janetta Kabulovna Xaltayeva! Men k sojaleniyu sizning sochineniyelaringizni oʻqigan emasman. Rostini aytsam, kitob oʻqishga vaqt yoʻq. Bilasiz, vremya – dengi. Xotya eshitganman. V osnovnom mamashkalar haqida yozarkansiz”. Til madaniyatining nima ekanini anglamagan, oʻz ona tilini qadrlamagan saviyasi past odamgina ruscha gapirib turib ruscha soʻzlarni aralashtiradi. Bu esa har ikki tilni buzish, ikkala tilning yuziga oyoq bosishdan boshqa narsa emas! M: *“Mening ham toʻrtta bolam bor... Nima? unaqaga oʻxshamaydi, deysizmi? Rahmat, complement uchun! Hamma shunaqa deydi. Men mamamga oʻxshayman. Mamam oltmish yoshidayam appetitniy edi. Kak kukolka! Har kuni sochini prichoska qildirardi. Alchibaltga! Alchibaltni taniysizmi? Neujeli? Pervoklassniy master-ku! Mujskoy salonga bormaganmisiz? V prochem, mayli... Olovingiz bormi?.. Yoʻq-yoʻq, men “more” chekaman... Senkyu. Zajigaklangizga gap yoʻq. tochno importniy!”* ayol oʻzbek tiliga rus tilini aralashtirib gapirayotgani yetmay rus tiliga jargon soʻzlarni ham ishlatayotgani uning maʼnaviy saviyasini ham yaqqol namoyon etmoqda.

Itak toʻrtta bolam bor. Maratik – Nukusda. Internatda. Yoshi... minutochku, yoshi pomoyemu oʻn toʻrttda. Shu yil oʻn toʻrtga kiradi. Kopiya – papasi. Kr-r-rasavchik! Smugliyligi, koʻzining razrezi... Papasi bilan birinchi vstrechamiz Nukusda praktikaga borganimda boʻlgan. Zam ministr edi. Shunaqa abayatelniy, shunaqa intelligentniy. Ikki yilcha turdik. Sivilizovanni ajrashdik.

Toʻgʻrisini aytdi. “Jannochka, jonim, – dedi, – bu yogʻi prokol boʻladiganga oʻxshaydi, xotinim jaloba yozibdi, dvoyejenstvo uchun ishdan haydashlari mumkin”,-dedi. Bilasiz, u paytda bunaqa masalalar strogiy edi. “Maratik uchun volnovatsiya qilma, oʻzim opekamga olaman, sen Toshkentga ketaver, regulyarno borib turaman”,- dedi. “O-key!” dedim...

Nigorochka – Samarqandda. Toyest, Nigorochka emas, Nargizochka! Nigorochka – Qoʻqonda...

¹ . Н.Махмудов.Уқитувчи нутки маданияти.Алишер Навоий номидаги Ўзбекистан Миллий кутубхонаси нашриёти. Тошкент - 2007

Gde-to ikki yilcha oldin Samarqandga bordim. Nargizochkaning detdomiga kirdim. Detdom – tak sebe. Ammo direktor nishtyak ekan! Dida!

Bo'y-basti ikki metr. "Bratan" dedim, – Nargizochkadan xabar olishim qiyin. Ishlarim navalom, dedim. "Xotirjam bo'ling. Nargizochkaga o'zim otalik qilaman", dedi. Uch kun mehmon bo'ldim. Kr-utoy erkak ekan! Molodets!

Nargizochkaning papochkasi ham krutoy edi. Mejrayonniy neftebazada direktor bo'lib ishlardi. Yoshi ellikdan oshgan bo'lsa-da, kak ogurchik edi. Samarqandning paxani edi. Xotinidan qo'rqmasdan shik-k-karniy to'y qildi. Restoranda. Yomon yashamadik... Qamalib ketgani chatoq bo'ldi.

O'sha yerdan "ksiva" keldi – xabar. U kishiing aytishicha, kak budto hammasiga men vinovata ekanman. E, to'kil dedim! Benzinga distoplivo qo'shishni men o'rgatdimmi senga dedim!

Ammo Nigorochockadan anchadan beri xabar olganim yo'q. Aytim-ku, "vremya – dengi". Qo'qonga hech yo'lim tushmayapti. Nigorochocka otasida qolgan.

Predprinimatel edi. "Jahon bozorida" sakkizta "tochka"si bor edi. Xarakteri "milenkiy". Takoy poslushniy. Ikkita xotinidan bolasi bo'lmagani uchunmi, Nigorochockani jonidan ortiq ko'rardi. Har kuni ming xil o'yinchoq olib keladi. Hammasiga o'zi aybdor! Nuqul zamechanie beradi, notatsiya o'qiydi. "Jannatxon, tahorat suvini yaxshi isitmabsiz. Xuftondan keyin ko'chaga chiqmasinlar. Nomahramlarga ko'rinmasinlar. Begona erkak bilan gaplashmasinlar!" Tomi ketgan fanatik! E, sirpal, dedim! Obbergan bir xonali kvartirangga kak durochocka uchinchi xotin bo'lib o'tirishim kerakmi, dedim!...

Pardon, yana olovingizdan... Senkyu. Mejdu prochim, zajigalkangizga gap yo'q! Ko'p chekasizmi? Shavkatning papasiyam ko'p chekardi. Mana buni nastoyashiy mujik desa bo'ladi! Qomat bespodobniy! Qomat bespodobniy! Sochlar kurchaviy! Biznesni sindirib qo'yadi! Hamma ishi "doda"! To'rtta xotinni vot tak obespechit qilib qo'yan. Razumeyetsya ZAGSimiz yo'q edi. V prochem bunisi nevajno. Ikkita "Mersi" bor edi. "Mers-600"! Veldersoydagi dachasini ayting! Saunasi, basseyni...

Net ravnixl Bir yilcha bo'ldi. Rossiyaga ketgancha daragi yo'q. O'sha yerdagi bratanlardan surishtirsam, biz ne v kurse delo, deydi...

Shavkatchik o'zimda. Ikki yoshga chiqdi. Shustriy. Xodyachaya bomba. Mejdu nami bir gap aytaymi? Uyga notanish "dyadya"lar kelsa, halitdan meni revnovat qiladi, parazit! Sizni "fazendam"ga "xodyachiy bomba" yo'qligida chaqiraman, o-keyl

V obshem mayli, blije k delu! Menga sizning padderjkangiz kerak. Hokimiyatga zayavleniya bergan edim. "Men mat odinochkaman. Qiynalib ketdim, shahar markazidan kvartira berishingizni so'rayman" deb. Borsam, bir patsan o'tiribdi. O'n kundan keyin keling, dedi. Bugun borsam nima deydi deng? "To'rt xonali uyingiz bor ekan-ku!" deydi. Men uyni sening pulingga opmanmi? Xudoga shukur, boshimda erlarim, toyest, erim bor, toyest bor edi. Bu uyni o'z pulimga sotib olgaman. Ellik ming "baks"ga! Tag'in nima deng, frayer? "Opajon", "monetniy dvor"dan chiqib keldingizmi, hamma yog'ingiz brilliant-ku!" deydi. Menga kompliment qilyapti, sopyak! Brilliantni sen podarka qipsanmi? Ayol boshim bilan biznes qilyapman. "Chelnok"ka boryapman. Stambulga, Dubayga, Yujniy Koreyaga... Osonmi? Har qadamda "ment!" "Dolya" cho'zmasang, hammasini obqo'yadi.

Kstati... Dubayda bo'lganmisiz? Obyazatelno boring! Texnika pochti darom! Tilla – navalom. Arablar temperametniy bo'... Nu, bunisi nevajno!

Koroche, hokimiyatdagi o'sha patsan "Sizga uy yo'q, hamma kvartiralalar privatizatsiya qilib bo'lingan, qayoqqa borsangiz, "katta ko'cha" dedi. Shuni bir feleton qiling! Bespomoshniy mat-

odinochkani unijat qilish qanaqa bo'lishini bir, ko'rsatib qo'ying! Men ham qarzdor bo'lib qoimayman. Familiyasi... minutochku, familiyasi... yozib olgaman.

Nima? Yozmaysiz? Toyest, kak yozmaysiz? Nima? Nima dedigiz? Yana bir qaytaring! "Men inkubator tuzatadigan usta emasman", dedingizmi? Kim inkubator? Nega ayol kishini haqorat qilasiz? Nima haqqingiz bor. Naxal! Pisaka neschastniy! Ma, zajigalkang bosh-sh-shingdan qolsin!"

Aslida, tilda so'zlarning qo'llanishi erkin holda bo'ladi, majburiylikni xalq qabul qilolmaydi. Singib keta bilmagan so'zlar sekinlik bilan muomaladan chiqadi. Jamiyatdagi o'zgarishlar birinchi o'rinda tilda aks etgani bois, tilda ularni ifodalash uchun ehtiyoj tug'iladi. Muqobili izlab topilmasa, u haqida qayg'urilmasa, ya'ni nazorat qilinmasa, terminning ma'no-mohiyatini tushunishda anglashilmovchilik va yanglishliklar yuz berishi mumkin. Ko'rinib turibdiki, yozuvchi ikki tilda aralash gapirayotgan qahramon nutqidan foydalanib, asar qahramonini xarakterini ochib beryapti. Ammo o'quvchi ongida shakllanayotgan yozuv va so'z boyligining imkoniyatlari shu qolipda qolishi til kelajagiga putur yetkazishi tayin. Hikoya qahramoni qo'llayotgan ko'cha terminlari, jargon, argo, vulgar so'zlar til sofligiga umuman zid holat hisoblanadi. Mazkur ikki tilda har qanday fikr va mulohazani juda chiroyli qilib bildirish, har qanday lavha va manzarani odam hushini oladigan qilib tasvirlash mumkin. Darhaqiqat, bir tilda toza gapira olmagan yo toza gapirishni mensimagan odamni aslo madaniyatli deb bo'lmaydi. Har birimiz o'z ona tiimizga muhabbat va uning sofligini saqlashga harakat qilishimiz zarurdir. **Chetdan qabul qilingan so'z va terminlarning muqobilini shoshma-shosharlik bilan topmasdan qo'llash tilga qilingan jinoyat hisoblanadi.**